

KESIM O'RNIDA KELGAN AKTIV SINTAKSEMALAR TAHLILIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Sh. Ashurov¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada gap tarkibidagi kesim vazifasidagi elementlarning differensial sintaktik va semantik belgilarini aniqlash, ularning ifoda variantlarini izohlash hamda u yoki bu sintaktik aloqalar yordamida qanday differensial sintaktik va semantik belgilar bilan birika olish imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: sintaksema, differensial, protsessuallik, aktivlik, yadro predikativ aloqa, subordinativ aloqa, terminativ, noterminativ, transformatsiya.

doi: <https://doi.org/10.2024/cegvkz30>

Tilshunoslikda gap bo'laklari tahlili an'anaviy grammatika nuqtai nazaridan bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratilgan holatda olib boriladi. Gapning bosh bo'laklaridan biri bo'lmish kesim tahliliga turlicha yondashuvlar mavjud. Ba'zi olimlar kesimni semantik anglash faqat uning semiotik talqinida namoyon bo'lishini ta'kidlasalar², boshqa birlari esa gapdagi birliklarning semantikasi struktur ierarxiya orqali aniqlanishi mumkinligini ko'rsatadi². Bundan tashqari gapdagi har bir elementning semantikasi uning nutqda qo'llanilishiga bog'liqligi ta'kidlab o'tilgan fikrlarni ham uchratish mumkin³.

Gapdagi elementlarning sintaktik-semantik belgilarini aniqlashda aniq modellarga tayangan holda ish olib borilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ushbu maqolada gap tarkibidagi elementlarning differensial sintaktik va semantik belgilarini aniqlash, ularning ifoda variantlarini izohlash hamda u yoki bu sintaktik aloqalar yordamida qanday differensial sintaktik va semantik belgilar bilan birika olishini yoritish maqsad qilib qo'yilgan. Kesim o'rnida kelgan elementlarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda shunisi muhimki, bir xil yunksion (gapdagi elementlar orasidagi sintaktik aloqalar) va komponent modellarga (gapdagi elementlarning sintaktik va morfologik ifodalari) tushgan gaplarda turli xil differensial sintaktik va semantik belgilar mujassamlashgan holatni ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda, gapdagi elementlarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilish har bir elementning u yoki bu o'rinda sintaktik qatlamdagi semantik maydonini aniqlashda namoyon bo'ladi.

Sintaksemalarga ajratib tahlil qilish, asosan, uchta kategorial belgi ya'ni protsessual, substansial va kvalifikativ⁴ belgilar asosida olib boriladi. Ushbu kategorial belgilar asosida esa sintaktik birliklarning bir qancha nokategorial belgilari aniqlanadi. Jumladan, kesim

¹ *Ashurov Shahobiddin Saidovich, Samarqand davlat chet tillar instituti professori*

² Cook G. *Discourse and Literature*. - Oxford: Oxford University Press, 1994. - P. 242..

² Теньер Л. *Основа структурного синтаксиса: Перевод с франц.* - Редкол.: Г.В.Степанов (Предисловие) и др. - Вступ. статья и общ. ред. В.Г.Гака. - М.: Прогресс, 1988. - С. 53.

³ Gruber J.S. *Lexical Structures in Syntax and Semantics*. - Amsterdam, 1996. - P. 48-49

⁴ Protessuallik-ish harakatni yoki holatni ifodalovchi sintaktik birlik; Substansiallik-shaxsni, predmetni ot, olmosh kabilar yordamida ifodalanishi; Kvalifikativlik-predmet yoki shaxsning belgisini, sonini, ish-harakat bajarilish tarzini ifodalaydi. Qarang: Ashurov Sh.S. *Инглиз ва ўзбек тилларида кесим типологияси: Номзодлик диссертацияси автореферати*. - Тошкент, 2007. - Б. 9

vazifasida kelgan protsessual sintaksemlar tipologiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, "protsessuallik" atamasi *protsess*, ya'ni *jarayon* ma'nosini ifoda etib, u substansial va kvalifikativ belgilarga qarama-qarshi qo'yiladi. Protsessual sintaksemlar kategorial differensial sintaktik-semantik belgilardan biri bo'lib, u sintaktik sathda aktivlik (harakat), deriktivlik (yo'naltirilganlik) va stativlik (holat) kabi bir qancha nokategorial belgilarni ham o'zida aks ettiradi⁵. Tabiiyki, sintaktik qatlamda ularni bir-biridan farqlashda qator qiyinchiliklar tug'ilishi mumkin. Gapda kesim o'rnida kelgan protsessual sintaksemalarning leksik bazasi turli semaga ega bo'lgan fe'llar hisoblanadi. Fe'l odatda shunday so'z turkumiki, semantik jihatdan harakat yoki holatni ifodalasa, shakl jihatdan esa shaxs, zamon, nisbat, tus va maylni ifodalaydi⁶.

Ko'pgina fe'llar kontekstda kelishiga ko'ra aktivlik yoki stativlik belgilarini ifodalashi mumkin, lekin bu ularning gapdagi boshqa elementlar bilan bo'ladigan sintaktik aloqalariga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham M.Lich *remember* fe'li bilan ikkita misol keltirib, ulardan birida *remember* aktivlikni (ish-harakatni) ifoda etsa, boshqasida stativlik (holat) belgisini ifodalashini ko'rsatadi: 1) *Suddenly I remembered a letter.* 2) *I shall remember that until I die*⁷.

Keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, protsessuallik tarkibidagi aktiv va stativ sintaksemlar o'zining distributsiyalari bilan farqlanadi. Ushbu maqola doirasida protsessual-stativ va protsessual-aktiv sintaksemalarni to'liq farqlash muammosini hal qilish asosiy maqsad qilib qo'yilgan emas. Chunki bu masala maxsus izlanishni talab qiladi. Shu bois biz quyida ingliz hamda o'zbek tillarida protsessual aktiv va stativ belgilarga ega bo'lgan birliklarga alohida e'tibor qaratmoqchimiz.

Ma'lumki, aktiv so'zi lotincha "*activ*" so'zidan olingan bo'lib, «*harakat*» ma'nosini ifodalaydi. Bu sintaksema ingliz tilida kesim vazifasida quyidagicha ifodalanadi:

- 1) *I went out to meet her (EHF, 102);*
- 2) *A bat flew into the room (EHF, 73).*

Gaplardagi *went out*, *flew* elementlari fe'l bilan ifodalangan bo'lib, ular protsessual-aktivlik ma'nosini ifoda etadi. Aktivlik belgisi ushbu sintaktik birliklarning kesim o'rnida kelib, yadro predikativ aloqa asosida agentiv (harakat bajaruvchi) sintaksema bilan birikib kelishi orqali aniqlanadi va isbotlanadi. Bu sintaksemlar gaplarda o'timli va o'timsiz fe'llar bilan ifodalanib, fe'lning aniq nisbatida beriladi va harakatni ifodalaydi. Bu harakat sub'ekt tomonidan bajariladi. Ega (yadro predikativlik I) o'rnida kelgan elementlar, ya'ni *I*, *a bat* so'zlari agentiv sintaksemaning variantlari hisoblanadi. Protsessual-aktiv sintaksema (PrAc) kesim o'rnida kelganda o'timli, o'timsiz, terminativ (tugallangan) hamda noterminativ (tugallanmagan) fe'llarning shaxsli shaklida ifodalanishi mumkin:

- 3) *She started for the door (EHF, 102);*
- 4) *The wickets gloomed in the sun (TH, 33).*

Bundan tashqari, fe'lning analitik shakli yoki frazeologik birliklar yordamida ham ifodalanadi:

- 5) *We had planned to go to Pallanza (EHF, 99);*
- 6) *All our boarders have been using it for no end of time (VG, 91);*
- 7) *He gave her a look (SMP, 35);*
- 8) *Dave Nelson was in command (CFS, 328).*

Oxirgi ikkita gapda protsessual-aktiv sintaksemlar transformatsiya-verbalizatsiya (fe'lga aylantirish) yordamida aniqlanadi:

⁵ Мухин А.М. Функциональный анализ синтаксических элементов (на материале древнеанглийского языка). – М., Л.: Наука, 1964. – С. 72-73.; Мухин А. М. Морфологические и синтаксические категории // Исследования по языкознанию: к 70-летию члена - корреспондента РАН А. В. Бондарко / Отв. ред. С. А. Шубик. - Санкт-Петербург: Изд-во С.-Петербургского ун-та, 2001. - С. 51-55.

⁶ Мешанинов И.И. Члены предложения и части речи. – М.: Наука, 1978. – С. 292

⁷ Leech N. Meaning and the English verb. – London: Longmans, 1971. – P. 4-5

(7) *He gave her a look* → *He looked at her*; (8) *Dave Nelson was in command* → *Dave Nelson commanded* (qiyoslang: *to give smb. a look* → *to look at smb; be in command of regiment* → *to command regiment*).

Yadro predikativ aloqa bazasida protsessual-aktiv sintaksema quyidagi sintaksemlar bilan birikishi mumkin:

1. Agentiv sintaksema bilan:

– *You are flattering me, sir* (VG,105).

2. Agentiv-negativ sintaksema bilan:

– *Nothing is ailing me* (CFS,175).

3. Substansial elektiv (tanlash)-agentiv sintaksema bilan:

– *Two of them were crying* (EHF,133).

Sodda yoyiq gaplarda protsessual-aktiv sintaksema subordinativ aloqa asosida quyidagi sintaksemlar bilan birikishi mumkin:

1. Substansial ob'ekt sintaksema bilan:

They will certainly tax it (VG,92);

I expect big things (CST,52).

2. Lokativ (o'rin) sintaksema bilan :

I went out as usual to school (CST,31);

Piani sat at the table very sleepy (EHF,136).

3. Substansial ob'ekt-agentiv sintaksema bilan:

I want you to remember (CST,52);

I will ask Valentini to come (EHF,72).

4. Temporal (payt) sintaksema bilan:

I am going away at midnight (EHF,105);

We'll know pretty soon (EHF,157).

5. Ob'ekt-aktiv sintaksema bilan:

I loved to take her hair down (EHF,82);

She hated to spend money (SMP,23).

6. Sotsiativ (birgalik) sintaksema bilan:

I had a drink with a captain (EHF,17).

7. O'ekt-elektiv sintaksema bilan:

I have missed some of them (VG,14).

8. Stativ (holat) sintaksema bilan:

He was lying asleep (EHF,156).

9. Komparativ (qiyoslash) sintaksema bilan:

You are like a married man (EHF,117).

10. Ob'ekt-kvalitativ (sifatni o'z zimmasiga olgan) sintaksema bilan:

The boy made the lights yellow (EHF,105).

11. Ob'ekt-stativ (holatni o'z zimmasiga olgan) sintaksema bilan:

They made me feel civilized (EHF,175).

12. Harakatning bajarilish tarzi yoki usuli sintaksemasi bilan:

She looked lovely in the bed (EHF,135);

The flakes were coming heavy (EHF,131).

Keltirilgan sintaksemlarni aniqlashda o'ziga xos eksprement, ya'ni transformatsiya passivizatsiya usulidan foydalangan holda isbotlash mumkin.

Jumladan, substansial ob'ekt sintaksemani ajratishda, gaplardagi aktiv sintaksemlar o'timli fe'llar bilan ifodalanganligi sababli transformatsiya passivizatsiyaga tushadi:

They will certainly tax it → *It will be certainly taxed by them*;

Misoldan ko'rinadiki, ingliz tilida substansial ob'ekt sintaksema aktivlik sintaksemaga nisbatan gap strukturasi postpozitsiya holatida keladi.

Shuni ta'kidlash joizki, aktiv sintaksemalar o'z navbatida aktiv-negativ, aktiv-deriktiv, aktiv-modal, aktiv modal-negativ stativ hamda ekzistensial sintaksemalarni aks ettirishi mumkin.

Ingliz tilida kesim vazifasida kelgan kategorial belgilardan protsessuallik sintaksemasi bazasida alohida nokategorial belgilardan aktivlik, aktiv negativlik, deriktivlik, modallik, modal negativlik, stativlik, ekzistensiallik kabi differensial sintaktik-semantik belgilar aniqlandi. Har bir nokategorial belgining ifodalanishi yadro predikativ va subordinativ aloqalar bazasida qanday sintaksemalar bilan bog'lanishi tahlil qilib chiqildi. Aktiv sintaksema gaplarda kesim o'rnida kelganda ingliz tilida o'timli, o'timsiz hamda terminativ, noterminativ fe'llarning shaxsli shakllari va fe'llarning analitik shakllari (*be+PI; have+PII; shall/will+infinitiv; should/would+infinitiv; have+been+PI*) yordamida ifodalanib, yadro predikativ aloqa asosida agentiv, agentiv-negativ, elektiv-agentiv sintaksemalar bilan bog'lanishi ko'rsatib berildi. Subordinativ aloqa asosida aktiv sintaksema ob'ekt, lokativ, ob'ekt-aktiv, ob'ekt-agentiv, ob'ekt-elektiv, ob'ekt-kvalitativ, ob'ekt-stativ, temporal, sotsiativ, stativ, komparativ, harakatning bajarilish tarzi yoki usuli kabi bog'lanishi mumkinligi kuzatiladi.

Bundan tashqari, protsessuallik kategorial belgilar bazasida yuqorida sanab o'tilgan sintaksemalardan tashqari, fe'l bilan ifodalangan stativ hamda ekzistensial sintaksemalar ham aniqlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Ашуров Ш.С. *Инглиз ва ўзбек тилларида кесим типологияси: Номзодлик диссертацияси автореферати.* – Тошкент, 2007. – 24 б.
- [2]. Бархударов Л.С., Штелинг Д.А. *Грамматика английского языка.* – М.: Высшая школа, 1965.
- [3]. Мешанинов И.И. *Члены предложения и части речи.* – М.: Наука, 1978.
- [4]. Мухин А.М. *Функциональный анализ синтаксических элементов (на материале древнеанглийского языка).* – М., Л.: Наука, 1964.
- [5]. Мухин А. М. *Морфологические и синтаксические категории // Исследования по языкознанию.* – Санкт-Петербург: Изд-во С.-Петербургского ун-та, 2001.
- [6]. Теньер Л. *Основа структурного синтаксиса: Перевод с франц.* – Редкол.: Г.В.Степанов (Предисловие) и др.- Вступ. статья и общ. ред. В.Г.Гака. – М.: Прогресс, 1988.
- [7]. Cook G. *Discourse and Literature.* – Oxford: Oxford University Press, 1994.
- [8]. Gruber J.S. *Lexical Structures in Syntax and Semantics.* – Amsterdam, 1996. – P. 48-49.
- [9]. Leech N. *Meaning and the English verb.* – London: Longmans, 1971.
- [10]. Miller I.E. *Stativ verbs in Russian // Foundations of Language, 1970.* – №4. V. 6.